

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TEXNIKA” FAKULTETI

“Qurilish va Arxitektura ” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA

TUSHUNTIRISH XATI

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: ”Yangiariq tumani Tagan qishlog’idagi 3-sonli 120 o’rinli bog’cha binosini kapital ta’mirlash va xududni obodonlashtirish”

Bitiruvchi talaba: _____ Rajapova O

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ Matkarimov A

Kafedra mudiri: _____ dots.M.B.Setmamatov

Fakultet dekani: _____ dots.M.Qurbonov

Urganch -2019

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TEXNIKA FAKULTETI
«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q

Rajapova Oydin Iqbol qizi.

1. Diplom loyihasining mavzusi: "Yangiariq tumani Tagan qishlogidagi 3-sonli 120 o'rinli bog'cha binosini kapital ta'mirlash va xududni obodonlashtirish"

UrDU bo'yicha 2019 - yil 3 - yanvardagi 136 – T & 16 -son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar: *Holat tarxi, bosh reja, qavatlar rejasi, qirqimlar.*

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A4 formatda qo'lyozma tarzida yoki 40-50 varaq kompyuterda yozilgan matnlar):

a) Arxitektura qurilish qismi bo'yicha: *_Holat tarxi, bosh reja, qayta tarxlash sxemasi, fasadlar, qavatlar rejalari, qirqimlar, ora va tom yopma, tom rejalari (qayta tiklashdan keyin), tugunlar, bino atrofini obodonlashtirish*

b) Konstruktiv hisoblash qism bo'yicha: *_ Poydevorlar, yopmalar, binoning konstruktiv uzeli (ayrim olingan bir qismi), devorlar, tom yopma qismi, zinapoya, balka, ustun, rigel va hakoza (xajmi maslaxatchi tomonidan belgilanadi) hisoblanadi va loyihalanadi.*

v) Tashkiliy texnologik qismi bo'yicha: *Loyihalanayotgan ob'ektning qurilish bosh rejasi, kalendar grafik, ishchilar harakati sxemasi..*

g) Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi bo'yicha: *Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha topshiriq loyihalanayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab – chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik holatiga yondoshgan holda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhimdir:*

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha texnik yechimlar loyiha hujjatlarida to'g'ri hal qilinishiga va loyihada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilishning:

a) mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini yaratishga;

v) ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi qoidalariga;

s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati. Mavzuni tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar gazeta, jurnal, internet manzillari ro'yxati.

Ilovalar. Mavzu bo'yicha olingan hujjatlar, jadvallar, rasmlar, internet, gazeta va jurnal ma'lumotlari ilova qilinadi.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yxati:

1) Arxitektura chizmalari- : *Xolat tarxi, bosh reja, qayta tarxlash sxemasi, fasadlar, qavatlar rejalari, qirqimlar, ora va tom yopma, tom rejalari (qayta tiklashdan keyin), tugunlar, bino atrofini obodonlashtirish.*

2) Konstruksiya chizmalari- Vatnan qog'ozda konstruksiya qismi (maslahatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyihalanadi.

3) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish bo'yicha

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslahatchilar:

1	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchilarning I.F
2	Arxitektura qurilish qismi				Matkarimov A
3	Konstruktiv hisoblash qismi				Matkarimov A
4	Tashkiliy texnologik qismi				Matkarimov A
5	Mehnat muhofazasi qismi				Matkarimov A

Topshiriq berilgan sana: _____

7.Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi : _____

Bitiruv malakaviy ishi rahbari : _____ Matkarimov A

Qabul qildi: _____ Rajapova Oydin

Kafedra mudiri : _____ I.Ruziyev.

Taqrizchi: _____ Allaberganov U.

Kirish:

Respublikamiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon hamda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ham alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur hujjatlar zahirida shaxsan Prezidentimiz tashabbus ko‘rsatayotgan jadallik, aniqlik va munosib natijaga erishish hamda g‘oyaviy jihatdan 2017-2021 yillarga mo‘ljallab ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi yotadi. Zero ular orqali tarixiy madaniy an‘analarga boy mamlakatlarning ijtimoiy hayotini yanada yaxshilash ,shaharsozlik va me‘morchiligi, arxitektura-qurilish ta‘limi va ilmini yanada takomillashtirish so‘nggi yillarda yig‘ilib qolgan qurilish industriyasi ,qurilish materiallari ishlab chiqarish, arxitektura va qurilish majmuasini innavatsion rivojlantirish, me‘moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etishning samarali tashkiliy-huquqiy va amaliy usullari joriy qilinayotir.

Bu muhim hujjatlarning yana bir yorqin xususiyati shundaki, ular ma‘muriy buyruqbozlik izkanjasidan xalos bo‘lgan chin insoniy demokratik g‘oyalarni e‘tirof etadi. Binobarin bu muhim hujjatning pirovard maqsadi qo‘mitaning asosiy vazifalari sifatida belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bosh rejalar asosida aholi punktlarini kompleks qurilish, bu ishlarni qonunchilik me‘yorlar va boshqa huquqiy tomonlarini nazorat qilish, monitoring yuritish , uzoq va o‘rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish boshqa, innavatsion ishlanmalarni tadbiq etish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda boshqa qator muhim faoliyat yo‘nalishlari aniq ko‘rsatib beradi.

Farmonda arxitektura loyihalashtirish va qurilish sohasida tizimli asosda kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ham alohida ahamiyat berilgan. Jumladan soxaning tizimli rivojlantirish maqsadida Toshkent arxitektura qurilish instituti 14 ta o‘rta maxsus kasb hunar kollejining “Davlatarxitekqurilish”qo‘mitasining tasarrufiga berilishi shundan kelib chiqib,

O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi huzuridagi Ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash jamgarmasini tashkil etish ko'rsatib o'tilgan.

Qisqacha aytganda mazkur huquqiy hujjatlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tilgan muhim ko'rsatmasi-"shaharsozlikning eskirgan metodologiya va normativlari, qayta qurilishdagi nomutanosiblik va muammolarni bartaraf etish"ga qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Kapital qurilishni yanada takomillashtirish va qurilish materiallari sohasida qulay sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi farmonini ishlab chiqmoqda. Hujjatga muvofiq, loyihalash va qurilish tashkilotlariga ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi qurilish texnologiyalarini joriy etish uchun soliq va boshqa imtiyozlar taqdim etildi.

Bundan tashqari, mahalliy loyihalash va qurilish tashkilotlarini tashqi bozorga chiqarish, loyihalarni ekspertiza qilish tizimini takomillashtirish, ushbu sohada kadrlar tayyorlashni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish rejalashtirilmoqda.

O'tgan yilning 1 avgust holatiga ko'ra Respublika bo'yicha yangidan qurilayotgan, kapital rekonstruksiya qilinayotgan, kapital va joriy ta'mirlanayotgan ta'lim ob'ektlarida jami 308,9 mlrd. so'mlik qurilish-tiklash ishlari bajarilgan. Bu esa yillik rejaning 89,3 foizini tashkil etadi.

Rekonstruksiyalash va kapital ta'miriash ishlari hajmi so'ngi yillarda sezilarli o'sib bormoqda. Xususan, kollej va litseylar, umumiy o'rta ta'lim maktablari, bog'chalar, sport inshootlari, turli-tuman jamoat va ma'muriy binolar bu borada asosiy o'rinni egallab turibdi. Unda shaharsozlik, me'morchilik va qurilish ishlarini tashkillashtirish bo'yicha turli murakkab masalalarni yechishga to'g'ri keladi.

Ko'p hollarda bino qavatlarini sonini oshirish, ayrim konstruksiyalarni yalpi yoki tanlov bilan almashtirish, konstruktiv unsurlarni, shu jumladan asos va

poydevorlarni kuchaytirish ehtiyoji tugʻiladi. Shuni taʼkidlash lozimki, bunday ishlarni odatda tor hovlilarda va koʻchalarning tor qismlarida, transport harakati va binolarda risoladagi yashash sharoitini buzmaganda bajarishga toʻgʻri keladi.

Taʼmirlash-qurilish ishlari qurilishning oʻziga hos sohasini ifoda etadi. Binobarin ish olib borish texnologiyasi yangi bino barpo etish boʻyicha qilinadigan ishlar majmuidan farq qiladi. Yangi qurilishga hos boʻlmagan maxsus ishlarni (konstruksiya va injenerlik qurilmalarini demontaj qilish, konstruksiyalarni taʼmiriash va kuchaytirish va hokazolar) bajarish lozim boʻlib qoladi. Bundan tashqari poydevor, devor, orayopma va tomlarni saqlash talab etiladi. Taʼmirlash obektlariga hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarning turli-tumanligi, qoʻllaniladigan konstruksiya va detallarning oʻlcham turlarining koʻpligi, ish hajmlarining tarqoqligi va ayrim hollarda oz miqdorligi hamda taʼmirlash ishlarini olib borish sharoitining nihoyatda murakkabligi, ish frontining ozligi, obʼekt maydonchalarining yetarli emasligi, ishlarni ekspluatatsiya qilinayotgan binolarda olib borilishi, taʼmirlanuvchi rekonstruksiya qilinayotgan obʼektning transport harakati kuchli boʻlgan shahar magistrallari joylashgan hollar hosdir.

Oʻtgan 2017-yilda va 2018-yilning hozirgi vaqtigacha qurilish sohasida juda katta oʻzgarishlar roʻy berdi. Shaharsozlik faoliyatini yanada takomillashtirish yoʻlida bir qator huquqiy-meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi. Shular bilan bir qatorda, shahar qurilishida tegishli tartib oʻrnatish va ularning uzoq istiqbolga moʻljallangan kompleks qayta taʼmirlashni qilinishini taʼminlash, shahar markazlari va arxitektura komplekslari qurilishi bosh rejalarida shaharlarning transport magistrallari va koʻcha-yoʻl tarmoqlarini kompleks rivojlantirish boʻyicha qabul qilinadigan loyihalar sifatini oshirish, shuningdek Shaharsozlik kodeksi talablariga, shahar qurilishining tasdiqlangan norma va qoidalariga rioya etilishi uchun masʼuliyatni kuchaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005-yil 26-aprelda “Shaharlarda yoʻl qurilishni takomillashtirish borasidagi qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-62 sonli hamda joylarda aholi punktlarini qurishda qarorlar qabul qilishda aholi punktlarini istiqbolga moʻljallangan butun infratuzilmasini, yaʼni jamoa markazlari, turar joy muhiti, koʻcha-yoʻl tarmogʻi,

tarixiy madaniy meros ob'ektlari, aholi yashash sharoiti va ekologiya muhitini rivojlantirish masalalari yechimi hisobga olinib shaharsozlik hujjatlarini belgilangan muddatlarda ishlab chiqishni ta'minlash borasida 2005-yil 30-avgustda "Shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlari bosh rejalarini tadbiq etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-165 sonli qarorlari qabul qilinganligi hammamizga ma'lum.

Dasturga ko'ra, o'tgan vaqt mobaynida 8500 maktab va bog'chalarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shu jumladan, 351 yangi maktab va bog'cha binosi qurildi, 2470 maktab binosi, bog'cha va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi rekonstruksiya qilindi, salkam olti mingga yaqin maktab mukammal va joriy ta'mirlandi.

E'tiborlisi shundaki, foydalanishga topshirilgan jami 4669 ta ta'lim muassasalaridan 3768 tasi (80,6 %) qishloq hududlarida, 120 tasi (2,6%) borilishi qiyin bo'lgan tog'li hududlarda, qolgan 781 tasi (16,8%) esa shaharlarda barpo etildi. Bu bilan qishloq va shaharlardagi maktablar o'rtasidagi tafovutga barham berildi.

Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasining arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmoni imzolandi.

Mazkur hujjat arxitektura va shaharsozlik sohasini rivojlantirish, shahar va aholi punktlari bosh rejalarining ishlanmalari va ularni amalga oshirishni yaxshilash, davlat organlari va xo'jalik boshqarmalari ma'suliyatini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Farmonda O'zbekiston Respublikasining Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifa hamda yo'nalishlari belgilab berildi.

Farmonga muvofiq Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi tuzilmasida loyihalashtirish, innavatsion loyihaviy qarorlar, texnologiyalar va qurilish materiallarini joriy qilish bo'yicha Texnik muvofiqlashtirish boshqarmasi yaratildi.

Arxitektura va davlat qo'mitasining loyihalashtirish va qurilish montaj ishlari sifati ustidan davlat nazorati bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi

Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi qoshidagi Arxitektura-qurilish nazorati Davlat inspeksiyasiga aylantirildi.

Qoraqalpog'iston Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrining Arxitekturaqurilish bosh boshqarmalari qoshida davlat unitary korxonalari shaklidagi Arxitektura-rejalashtirish byurolari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Respublika Arxitektura-shaharsozlik kengashining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Mamlakatimizni rivojlantirishga qaratilgan bu muhim hujjatlar xalqaro hamjamiyatini hayratga solishi bilan birga, yurtdoshlarimiz tomonidan zo'r mamnuniyat va minnatdorchilik bilan kutib olinmoqda.

I. ARXITEKTURA – QURILISH QISMI

Kafedra mudiri:

dots. Setmamatov M.

Arxitekturaviy-qurilish qismi:



dots. Matkarimov A.

Bitiruvchi:



Rajapova O.

LOYIXALASH UCHUN UMUMIY MA'LUMOTLAR

3-sonli 90 o'rinli bog'cha Yangiariq tumani Tagan qishlog'ida joylashgan. Diplom loyixasi topshirigiga ko'ra mavjud Bog'cha binosini qayta ta'mirlash va hududni obodonlashtirish loyihasi amalga oshirildi. Mavjud bog'cha binosi 1978- yilda qurilgan bo'lib bog'cha 90 o'rinli qilinib loyihalangan va qurilgan.

1. Qurilish maydonining asosiy tavsifnomalari

- tashqi havoning yozgi hisobiy harorati - $+27^{\circ}\text{C}$;
- qishki harorati - -19°C ;
- shamolning asosiy yo'nalishi - shimoliy-g'arbdan;
- yer muzlash qatlamining chuqurligi - 0,70 m;
- qor qoplamasi bo'yicha 1-geografik rayonga mansub bo'lib, me'yoriy qor qoplamasi - 0,5 kPa;
- shamol bosimi - 0,38 kPa;
- qurilish rayonining zilzilabardoshligi - 7 ball;
- seysmik ta'sirning qaytariluvchanligi - 100 yilda bir marta;
- seysmik xususiyatlar bo'yicha gruntning toifasi - II;
- binoning hisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball;
- yer osti suvlar -1m gacha aniqlanmagan;
- asosga tushadigan hisobiy bosim – 0.2 MPa.

Qurilish maydonining iqlimiy ma'lumotlari QMQ 2.01.01-04 «Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma'lumotlar» asosida olindi.

Ushbu loyiha norma va qoidalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bundan tashqari ularga mos holda bino ekspluatatsiyasi davomida portlash va yong'in xavfsizligini oldini oluvchi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Xonalarning tarkibi, ishchi xonalarda texnologik uskunalarning joylashishi QMQ 2.08.02-96 "Jamoat binolari va inshootlari" ning ilovasi IKN 02-09 MinVUZ RUz "Oliy o'quv yurti muassasalari, bog'cha, maktab va kasb-hunar kollejlari" asosida amalga oshirilgan.

2.Uchastka bosh rejasi

Qayta ta'mirlanayotgan binoning joylashgan o'rne bog'cha bosh rejasi sxemasiga mos holda, texnologik va asosiy yo'llarga bog'lanish, sanitar-gigienik va yong'inga qarshi talablarni hamda SHNK, 2.07.01-03 «Shaharsozlik, shahar va qishloq manzilgohlarini rejalashtirish va qurish» talablarini hisobga olib loyihalangan. Bino joylashgan hudud tuman asosiy yo'liga bog'langan. Binoni muhandislik kommunikatsiyalariga ulanishi tuman bosh rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Hududdagi mikro klimatni ta'minlash uchun turli mevali va manzarali daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtiriladigan maydonlar saqlab qolindi. Qayta ta'mirlash jarayonida ko'p yillik daraxtlarni saqlab qolish loyihada ko'zda tutildi. Qurilish maydoni iqlimi keskin kontinental, ya'ni yoz oylarida havo harorati yuqori bo'lganligi uchun ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tiborni qaratildi.

Loyihada binoning atrofini bruschatka bilan qoplash, unda yog'in suvlarini chiqib ketishini ta'minlash uchun yo'l chetlariga o'rnatiladigan temir beton lotoklar tomonga nishablik bilan amalga oshirish ko'zda tutilgan.


Bosh rejada bruschatkali yo'l ta'mirlandi va otmoska qilindi. Maysazor maydon va otmoska va bruschatka bilan tutashgan qismiga beton bordyurlar o'rantiladi. Hududning vertikal planirovkasi mavjud binolar tomondan yog'in suvlarini chiqib ketishini hisobga olgan holda mavjud relefni hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Yo'l va yo'laklarning nishabligi 0,000 dan 0,012% atrofida olindi.. Temir beton lotoklar yo'l bilan kesishgan joylarga asbestotsementli trubalar yotqiziladi.

Binoga kirish qismiga nogironlarning kirishi uchun SHNK2.07.02-07 "Insonlarning hayoti va faoliyati muxitini nogironlar extiyojlari va axolining kamharakatlanuvchi guruxlarini hisobga olgan holda loyihalash" talablari asosida pandus loyihalangan.

Ta'mirlanayotgan bino 1 qavatli va 4 blokdan iborat.

Bino bosh rejasida atrof muhit muhofasini ta'minlovchi hudud ichida gulzor va manzarali ko'p yillik daraxtlar mavjud. Qo'shimcha daraxtlar ekildi, ko'kalamzor maydon yaxshilandi.

Bino bosh rejas



Muxandislik tarmoqlari

- Elektr ta'minoti – kuchlanishi 220 V li TP hudud tashqarisidan;
- Aloqa – umumiy tarmoqqa ulanadi;
- Vodoprovod – ichimlik-xo'jalik maqsadlarida mavjud markazlashgan tarmoqdan;
- Oqava suv –mahalliy tarmoqqa ulangan;
- Isitish – mahalliy tarmoqdan, issiqlik tashuvchi suvning parametrlari - 65°-85°S
- Ventilyasiya – tabiiy va mexanik tortuvchi

Bosh reja asosiy ko'rsatkichlari

1 . Umumiy maydon	7300	kv.m
2. Qurilish maydoni	1148.3	kv.m
4. Otmoska va yo'laklar	865.12	kv.m
5. Ko'kalamzorlashtirilgan maydon	5286.65	kv.m
6. Qurilish foizi	30%	
7. Obodonlashtirish foizi	19%	

Hajmiy-rejaviy yechim

Bino to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib bir qavatdan iborat. Binoning o'lchamlari 14,5 x12 m,-3m. Binoga ikkita yon tomondan eshik orqali kiriladi. Binoda 2 ta yo'lak, kir yuvish xonasi, isitish xonasi, bolalar o'yin xonasi, yotoqxona, kir yuvish xonasi, xojatxona, yuvinish xonasi va qo'l yuvish xonalari mavjud.

4.Konstruktiv yechim

Poydevorlar

Binoning poydevori lentasimon temir betondan qurilgan. Binoda va uning bloklarida cho'kish qayd etilmaganligi sababli poydevorlarni texnik holatini o'rganish jarayonida yer osti qismi ham ta'mirga ehtiyojli emasligi aniqlandi. Faqat poydevor ham korroziya natijasida poydevorga qoplangan qoplama 40% foizga eskirgani sababli poydevorga tashqi tomondan qoplangan qoplama kafel plitaga almashtirildi.

Devor

Binoning tashqi devorlari 380 mm bo'lib, pishiq g'ishtli devorlardan iborat, ichkarida ba'zi joylar ya'ni yuk ko'taruvchi bo'lmagan devorlar parda devorlar.

Binoni ko'rib chiqish jarayonida asosiy yuk ko'taruvchi devorlarda darz yoki yoriqlar aniqlanmagan. Shu sababli qayta ta'mirlash ishlarida devor konstruksiyalarida o'zgarish bo'lmaydi. Ularni pardozlash ishlari amalga oshiriladi. Tashqi quyoshdan ximoyalovchi qurilmalari ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Tomyopma plitalari

Ora va tom ko'p g'ovakli temir beton plitalar bilan yotqizilgan. Plitalar binoga bo'ylama holda yotqizilgan. Plitalar o'lchamlari 96ta 6 x 1.0m, 36 ta 6 x 1.2m, 12 ta 3 x 1.0m, 6 ta 3 x 1.2m.

Yopma konstruksiyalarini tekshirish natijasiga ko'ra ularda buzilish, darz, ruhsat etilgan miqdordan ortiqmasligi aniqlandi. Shu sababli qayta

ta'mirlash loyihasida ularni faqat qayta bo'yoqlash ishlari tashkil qilindi.

Tom

Binoning tomi oldin ikki nishabli qilib asbestsement listdan qurilgan, tom qismida darzlar, yoriqlar paydo bo'lishi natijasida, ichkariga suv o'tgan. Shu nuqsonlarni bartaraf qilish uchun tom qismi qaytadan o'zgartirildi ya'ni to'rt nishabli bo'ldi.

Tom tushamasi sifatida profnastill listlar qo'llanilgan. Stropila konstruksiya ustidan 50x50 qadamda reykanan obreshetka qilib, ustiga profnastill list qoplama yotqizilgan. Tomdan yog'in suvlari tashkil qilgan xolda zanglamaydigan trubalar orqali chiqib ketadi.

Chordokli tom tekshirilganda quyidagi talablar bajarilganligiga alohida e'tibor qaratildi:

1. Stropila elementlari sifatida ishlatiladigan yog'och materiallar GOST 8486-86 talablari asosida ignabargli bulishi, uning o'lchamlari esa GOST 24454-80 asosida olinishi;
2. Yog'och materiallar kamida 2 nav bo'lishi, hisobiy qarshiligi, esa QMQ 2.03.08-98 talablariga javob berishi.
3. Yog'och materiallarni chirishdan va yong'indan himoyalash ishlari SNIP 2.03.11-85 va SNiP 2.01.02-85 talablari asosida amalga oshirilishi.
4. Chordokli tomning barcha yog'och konstruksiyalari TU 5717-001-16802523 asosida antiseptik ishlarini bajarish va "KZOD" rusumli yong'inga qarshi tarkib bilan 2 marta bo'yalishi.
5. Mixlarning uzunligi eng kichik kesimga ega bo'lgan birlashtiriluvchi detallarning qalinligiga 2 marta katta bo'lishi.

Pollar

Linoleum va kafelli hamda beton pol qoplangan xonalarda pollarni yangilariga almashtirish amalga oshiriladi.

Polni yotqizishda KD1K, 3.02.01-87 «Pollar» va SN-3 00-05 ko'rsatmasiga asosan yotqizilishi lozim.

Bu bino jamoat binosi sirasiga kirgani uchun asosan xonalarda linoleum pol qo'llanilgan. Apparat o'rnatilishi kuzda tutilgan xonalarda, ventkamerada beton pol, qo'llanilgan. San-texnika xonalari uchun keramik (kafel) pol qo'llaniladi.

Eshik va derazalar

Binoning oldingi holatdagi eshik va derazalari yog'och konstruksiyadan bo'libgan. Hozirda binolarni isitish emas, balki binodan issiqlikni yo'qolishini kamaytirish masalalari ko'proq, o'rganilmoqda. Shu sababli binoning eshik-derazalarini almashtirish, derazalarni AKFA zamonaviy rusumli derazalarga, eshiklarni tashqari tarafdagilarni AKFA eshiklariga ichkari tarafdagilarni MDF eshiklariga almashtirish ko'zda tutilgan.

Eshik va derazalar alyumin profilli va MDF rusumi qabul qilingan. Eshiklar binoga kirish, xonalarni o'zaro bog'lash uchun va boshqa xonalarga kirish uchun qo'llanilgan.

Ichki va tashki pardozi

Qayta ta'mirlash loyihasiga kiritilgan asosiy ishlardan bittasi ichki va tashqi pardozi, suvoq, qoplamalarini ko'chgan joylarini ta'mirlash, nam muhitda ishlaydigan xonalarning suvoq, qoplamalarini almashtirish ko'zda tutilgan.

Ichki pardozi uchun foydalaniladigan materiallar, xavo almashtirish qurilmalari, ventilyasiya sistemalari materiallari sanitariya xizmati tashkilotlaridan ruxsat berilgan bo'lishi lozim. Nam rejimda


ishlamaydigan xona devorlarini pardozlash uchun silikat bo'yoqlar moyli bo'yoqlar bilan birgalikda ishlatilishi tavsiya qilinadi.

Nam rejimda ishlaydigan yoki joriy dezinfeksiya kilinadigan xonalar: devoriga sopol plitkalar bilan pardozlanadi.

Bino atrofi 800 mm li asfaltli otmoska yotkiziladi

Loyihalangan bog'cha binosi qayta ta'mirdan so'nggi ko'rinishi





Binoning tekshirish va texnik tadqiqod usullari.

Tekshiruv natijalari

Binoning qurilish konstruksiyalarining texnik xolatini o'rganish ishlari olib borildi.

Binoni tashqaridan tekshirish ishlari sharqiy fasaddan sinchiklab tekshirishdan boshlandi. Keyin soat strelkasi yo'nalishida butun bino fasadi devorlarida kuzatuv ishlari olib borildi. Tekshiruv natijasida kuzatilgan binodagi nuqsonlar daftarchaga qayd qilib borildi. Shundan keyin bino ichkarisiga o'tildi. Bino ichkarisida kuzatuv ishlari dastlab 1- qavatdan boshlandi. So'ngra 2- qavatga chiqib kuzatuv ishlari davom ettirildi. Kuzatish davomida har bir qavatdagi xona eni, uzunligi, balandligi va dioganallarining

aniq o'lchamlari olinib, bino rejasiga taqqoslandi va daftarlarga qayd etib borildi. Shuning bilan birga xonalardagi va bino konstruktiv unsurlaridagi nuqsonlar va ularning holatlari ham daftarlarga yozib borildi. Binodagi mavjud muhandislik jixozlarining joylashuvi va xolati tekshirildi. Binodagi duradgorlik konstruktsiya va elementlari, eshik va romlarning holatlari joylashish vaziyati aniqlandi va aniq o'lchamlari daftarchaga yozib olindi. Tashqi tekshiruv natijasida diplom ishi uchun quyidagi natijalar qo'lga kiritildi.

1. Tekshirilayotgan binoning atrofidagi quyma betonlar va asfaltlar yaroqsiz xolatga kelgan.
2. Binoning deraza va eshiklari davr talablariga javob bermaydi.
3. Bino texnik holatini umumiy o'rganish bo'yicha xulosalar quyida keltirilgan.

Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini tekshirish maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, kerakli asbob va uskunalar bilan ta'minlangan tekshiruv ishlari olib borish uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziya) ega bo'lgan injener-texnik xodimlardan iborat malakali guruh tomonidan bajariladi. Bunday guruhlar loyiha va ilmiy-tadqiqot institutlarda, konstruktorlik byurolarida, qurilish obektlariga ekspluatatsiya xizmati ko'rsatuvchi bo'limlarda, oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot bo'limlari va talabalar loyiha-konstruktorlik byurolarida faoliyat olib boradilar.

Tekshiruv guruhlarida ish jarayonida bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish bo'yicha amaldagi barcha me'yoriy va yo'riqnoma hujjatlar, qurilish ob'ektlarida qidiruv ishlari olib borish, loyihalash, qurish va ularni ekspluatatsiya qilishga doir davlat standartlarini asos qilib olishlari lozim.

Tekshiruvga tayyorlanishda rekonstruktsiya qilinadigan bino va inshootning loyihalash va qurilish jarayoni, qo'llanilgan konstruktiv echimlar, mazkur davr uchun xos bo'lgan qurilish materiallari, qurilish va ekspluatatsiyaga doir vaqt haqida ma'lumotlarni sinchiklab o'rganib chiqish lozim.

Tekshiruvni o'tkazish uchun asos bo'lib rekonstruktsiyaning maqsadi va konstruksiyalarga tegishli asosiy talablar, taxminiy rejalashtiriluvchi texnologik

yuk va ta'sirlar, rekonstruktsiyadan keyingi rejaviy echimlar va umumiy ekspluatatsiya sharoitlari ko'rsatilgan vazifa xizmat qiladi. Bunda bino va inshootni kuchaytirish va qayta qurishga jalb etishga mo'ljallangan qurilish tashkilotining texnik imkoniyatlari, mavjud qurilish materiallari, mexanizmlari va boshqalar haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Tekshiruv o'tkazish va texnikaviy yechimlarni ma'qullash uchun asosiy tekshiruv guruhiga buyurtmachi korxona, undan so'ng ayrim hollarda esa pudratchi va yordamchi tashkilotlarning ham vakillari jalb etilishi kerak.

Odatda tekshiruv bo'yicha qilinadigan ishlar ikki bosqichda bajariladi:

1. dastlabki yoki umumiy tekshirish;
2. sinchiklab tekshirish.

Bunda tekshiruvni o'tkazish bir bosqichda amalga oshirilishi ham istisno etilmaydi.

Dastlabki tekshirishni kapital remont yoki rekonstruksiya qilinishi ko'zda tutilgan binolar uchun o'tkaziladi. Dastlabki tekshirishda binoning quyidagi tavsiflari aniqlanadi:

1. umumiy, ya'ni avvalgi vazifasi, qavatlar soni, binodagi xonadonlar va yashovchilar soni, turar-joy va noturar-joy maydoni, kubaturasi;

2. me'moriy-rejaviy tavsiflar — mavjud xonalarning rejalash-tirilgan- ligini tekshirish va oydinlashtirish, ularning zamonaviy talablarga mosligi;

3. konstruksiya bo'yicha — uyning qurilgan yili va qilingan qayta qurishlar, qavatlar bo'yicha yuk ko'taruvchi konstruksiyalar tizimi: ustunlar, o'rta-devorlar, orayopmaningjoylashuvi, ustqurma binolardagi konstruksiyabop sxemaning mos kelmaslik ehtimoli;

3. Obodonlashtirish va qurilmalarning — isitish tizimi, issiqlik manbai, suv o'tkazgichlar, kanalizatsiya, gaz, liftlar, ahlal o'tkazgichlarning borligi va holati;

4. Ish olib borish sharoiti — tekshirilayotgan va uning yonidagi bino oldida maydonchanning borligi, mavjud kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyati.

Dastlabki tekshiruv natijasida binoning inventarlash rejasi oydinlashtiriladi, ko'zda tutiladigan rekonstruksiya yoki remont haqida dastlabki xulosa qilinadi va sinchiklab tekshirish uchun vazifa beriladi.

Binolarni sinchiklab tekshirish

Ob'ektlarni tashxislashda asosiy bosqichlardan biri sinchiklab tekshirish hisoblanadi. Uni bino va inshootlari rekonstruksiya qilishda konstruktiv echimlar tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi qurilish konstruksiyalarining texnik holatini baholashda so'nggi yuqori darajada aniqlikka ega ma'lumotlarni yig'ish uchun o'tkaziladi.

Qurilish konstruksiyalarini sinchiklab tekshirish natijasida quyidagilarni olish tavsiya etiladi:

- oydinlashtirilgan texnik loyiha hujjatlarining ma'lumotlari;
- o'lchov chizmalari. Unda qurilish konstruksiyalarining rejadagi va balandlik bo'yicha holati aks ettiriladi. Yuk ko'taruvchi unsurlarning kesimlari, cho'kishi, siljishi, og'ishi va loyiha yoki me'yoriy talablaridan chekinish hollari ko'rsatiladi.

Undan so'ng materiallarning fizik-mexanik tavsiflarini asliy qiymatini topish bo'yicha kompleks ishlar bajarilishi kerak. Buning uchun sinovning buzilmas va laboratoriya usullaridan ko'proq foydalanish lozim. Konstruksiya, uzellar va birikmalardagi nuqson va shikastlar aniqlanadi, tashxis qilinadi.

Konstruksiya va asosga ta'sir etuvchi statik yuk va ta'sirlarning kattaligi aniqlanadi, ekspluatatsiya qilinadigan muhit haqida ma'lumotlar to'planadi, shu bilan birga dinamik yuklar (vibrotashxis haqidagi ma'lumotlar ham) bo'lsa ular to'g'risida ham ma'lumotlar beriladi. Konstruksiya va inshootlar, ularning ayrim elementlarini tekshiruv hisobini bajarish uchun yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning hisobiy sxemasi qabul qilinadi. Konstruksiyalarni sinchiklab tekshiruvini hammasini yoki bir qismini o'tkazish tanlov orqali yoki yalpi tartibda o'tkaziladi.

Binoni sinchiklab tekshirish old qismidan (fasad) boshlanadi, ichki rejasi, poydevor va zaminlar, devorlar, ustunlar, orayopmalar santexnik qurilmalar tekshiriladi va binoni sinchiklab tekshirilganligi natijalari bo'yicha texnik xulosa tuziladi.

Fasadlarni sinchiklab tekshirish

Fasadlarni sinchiklab tekshirish barcha tashqi devorlarni zimdan ko'rikdan o'tkazish bilan boshlanadi. So'ngra xonaning ichki tarafi ko'rikdan o'tkaziladi. Fasadlarni tekshirishda binoning pardoz va nuqsonlarini tashqi arxitekturasiga yuzasiga chiqarish uchun shikastli va yoriqli joylardagi fasad fragmentlarini va arxitektura detallarini yirik planda foto suratga olinadi.

Arxitektura rejalashtirish va hajmiy yechimlarni tekshirish

Me'moriy-rejaviy va hajmiy yechimlarning tekshirish binolarni rejalashtirish, fasadlarning arxitekturasini va hajmiy yechimlar haqida to'liq kelib chiqib qabul qilinadi hamda yuqorida aytib o'tilganidek, bunday ishni amalga oshirish o'ta

Obektni tekshirish natijasida quyidagilar olindi.

1. Bino poydevorining sokol plitalari 40 % gacha tushib qolgan.
2. Poydevor sirtida 15 m uzunlikda 1-2 mm qalinlikda sho'rlanish aniqlandi.
3. Bino tashqi devori fasad qismida suvoq qoplamasi tushgan, mahalliy buzilishlar aniqlandi.
4. Oshxona, xojatxona, yuvinishxonalari devorlaridagi plitalar tushganligi aniqlandi.
5. Yo'laklar, yotoqxonalar, o'yinxonalarining pollari yaroqsiz xolatga kelgan.
6. Isitish tizimi – yaroqsiz.
7. Oyna va eshiklar – yog'ochdan eskirgan va yaroqsiz holatga kelgan.

8. Tom – asbestsement po'lat listdan yaroqsiz xolatga kelgan.
9. Obodonlashtirilgan hududlarni holatlari yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Binoni texnik holatni tekshirish natijalari bo'yicha

umumiy xulosa.

Konstruksiyaning yuk ko'tarish qobiliyatini, zilzilabardoshlilikini, xavfsiz ekspluatatsiyani ta'minlash maqsadida quyidagi ishlarni bajarish tavsiya qilindi:

Tashqi devorlar yuzasida suvoq va pardoz ya'ni travertin ishlarini bajarish, panellar(knauf) orasidagi choklarni tozalab polimersementli qorishma bilan tiklash.

Eshik va derazalarni zamonaviy "Akfa va MDF" rusumli eshik va derazalarga almashtirish;

Binoning pol konstruksiyalari eskirganligi sababli ularni almashtirish;

Binoga estetik ko'rinish berish.


Barcha pardevorlarni olib tashlash. Yangi pardevorlar o'rnatib, binoning yangi loyixasiga seysmik qurilishni xisobga olib moslashtirish.

Tom qoplamasini almashtirish.

Binoni cho'kish deformatsiyasiga uchramasligi uchun bino perimetri bo'yicha suv o'tkazmaydigan beton otmoskalarni binodan tashqariga nishab ostida qurish kerak.

Keyinchalik binoni ishonchli va xavfsiz ekspluatatsiya qilish uchun vaqti-vaqti bilan konstruksiyalarni texnik holatini tekshirib turish lozim.

II. KONSTRUKTIV – HISOB QISMI.

Diplom loyihasi rahbari:  o`qt. Matkarimov. A

Konstruktiv-hisobiy qism:  o`qt. Akimov. E

Bitiruvchi:  Rajapova. O

II. KONSTRUKTIV – HISOB QISMI.

Binolarni rekonstruksiya qilishda binolarninig rekonstruktsiya natijasida bo'ladigan o'zgarishlarga binoning konstruktiv ustuvorligi darajasini aniqlash maqsadida ularni ustuvorlikka, yuk ko'tarish qobiliyatiga, mustahkamlikka hisoblanadi. Bunda bino birinchi va ikkinchi chegaraviy holatlar bo'yicha ham hisoblanadi. Hisoblar natijasida agar lozim bo'lsa asosning yuk ko'tarish qobiliyati oshiriladi, poydevorni kuchaytirish ishlari bajariladi, devorlar shiqish yo'li bilan kuchaytiriladi, orayopmalarning egiluvchanligi kamaytiriladi, binoning zilzilabardoshligi oshiriladi va hakazo ishlash amalga oshiriladi.

Bino konstruktiv elementlarini tekshirishdan maqsad - barcha yoki aksariyat nuqsonlarni topish va ularni kelib chiqargan sabablarini aniqlashdan iborat.

Tekshirish asosida konstruktsiyani yaxshilash, kuchaytirish yoki almashtirish haqida qaror qabul qilinadi va loyihalash uchun dasitlabki hujjatlar tuziladi. Ular qaror bo'yicha va uning binodagi orni va ko'zda tutilgan hajmi buzilishi lozim.

2.1. Binoning konstruktiv tavsifi.

Tekshirilayotgan bino Yangiariq tumanida joylashgan:

Binoning umumiy tasifiga:

Yangiriq tumani seysmik kartasidagi o'rni	- 7 ball
Grunt turining xossasi	- IV.
Qor qalinligining tom yopmasiga tushadigan og'irlik kuchi	- 50 kg/m ²
Shamolning tezlik bosimi	- 38 kg/m ²
Binoning qurilgan yili	- 1978-yil
Binoning foydalanish turi	- Bolalar bog'chasi
Binoning o'lchamlari	- 14.5x12.0m
Binoning qavatlilik	- 1 qavat

Xonalarning balandiligi:	- 3,00 m.
Devor poydevori	- lentasimon quyma temir beton
Poydevor:	- sementli qum qorishmasi quyilgan poydevor qalinligi- 0,40 m. Poydevor tag qismi qalinligi - -1,2m, [0,7m]
Bino:	- pishiq g'ishtli, sement qorishmasi bilan terilgan qalinligi 380mm.
Pardevorlar	- pishiq g'ishtli, sement qorishmasi bilan terilgan, qalinligi 120mm.
1, 2,3 – qavat ustun	- ko'ndalang yo'nalishdagi yuk ko'taruvchi quyma temir-beton o'lchami 400x400(h)mm.
Ravoqlar (<u>Peremichki proemov</u>)	- quyma temir-beton, o'lchami 380x220(h) mm.
Tom qoplamasi	- cherdaqli, profnasstil shiferli.

2.2. Bino konstruktsiyalarning texnik holati.

№	Tekshirilayotgan kanstruktsiya tavsifi	Texnik holati	Fizik yemirilish %	Tafsiya etiladi
1.	Poydevorlar: Lentasimon quyma temir-beton	Emirilish,o'pirilishlar holati kuzatilmadi.	-	-

2.	Devorlar: g'ishtdan terilgan=380	Darzlar kengligi 0.5 mm dan, chuqurligi devor qalinligining 1/8	10	Shtukaturka Bilan tamirlash, choklarni yamash
3.	Zilzilaga qarshi belbog': 260x220(h) o'chamli quyma temir-beto'n	Buzilish holati yo'q	-	-
4.	Tomqoplama: Cherdaqli, asbes shiferli	Yoroqsiz		Yangisiga almashtirish. Profnastilga.

2.3. Binoni tekshirish va texnik tadqiqod usullari.

Bino konstruktiv elementlarini tekshirishdan maqsad - barcha yoki aksariyat nuqsonlarni topish va ularni kelib chiqargan sabablarini aniqlashdan iborat.

Tekshirish asosida konstruktsiyani yaxshilash, kuchaytirish yoki almashtirish haqida qaror qabul qilinadi va loyihalash uchun dasitlabki hujjatlar tuziladi. Ular qaror bo'yicha va uning binodagi o'rni ko'zda tutilgan hajmi buzilishi lozim.

Tekshirish va tashxis usullari.

Tekshirish usullari	Bino elementlarining tavsifi	Qiyosiy mehnat sarfi
Bevosita tekshirish	Ko'rish uchun imkon bo'lishi lozim	I
Mexanik-oddiy asboblarda yordamida	Tosh, beton, qisman yog'och	II
Buzulmaydigan usullarda asboblarda bilan	Beton, g'isht, metall, yog'och	II

Laboratoriyaviy	Namuna olish mumkin bo'lgan joyda	III
Asliy sinovlar	Buzish mumkin bo'lgan elementlar	IV

Bevosita tekshirish usuli bilan ba'zan ko'rikdan o'tkazish mumkin bo'lmagan konstruktiv elementlar, masalan poydevor, ayrim balkalarning holatini aniqlash mumkin.

Laboratoriya usuli tashxis qoyish turining aniqlovchi, yordamchi usul hisoblanadi.

Bino elementlari mustahkamligi buzilmaydigan usullar yordamida nazorat qilishning mexanik usullari orqali ham aniqlanadi. Buzilmaydigan usullar yordamida nazorat qilish usullari o'z mohiyatiga ko'ra beton mustahkamligini buzmasdan nazorat qilish usullari element yoki detallarni ko'p martalab foydalanishga yo'l qo'yadi va shu bilan birga qurilma mustahkamligini pasaytirmasdan katta hajmdagi ma'lumot olishga va o'lchovlar aniqligini oshirishga imkon beradi. Buzmasdan nazorat qilishning mexanik usullari quyidagicha:

Sindirib uzib olish usuli quyidagicha bajariladi.

Betonda parmalab yoki urib chuqurcha qilinadi, unga ankerli qurilma mahkamlanadi, asbob ankerli qurilma bilan biriktiriladi, 1.5-3.0 kNG's tezlikda kuchlanish oshib boriladi. Asbobning kuch o'lchash natijasi va sug'irilish chuqurligi kamida 1 mm aniqlik bilan belgilanadi.

Agar ankerli qurilmadan beton sug'irilib olingan qismlarning eng katta va eng kichik o'lchamlari qurilma yuzasi bo'yicha buzilish chegarasida bo'lgan farqi ikki martadan ko'p bo'lsa, hamda agar sug'irish chuqurligi ankerli qurilmalar 015 o'rnatilgan chuqurlikka nisbatan farqi 5% dan ko'p bo'lsa, beton mustahkamligining sinov natijalari faqat taxminiy baholash uchun hisobga olinadi. Buning uchun GPNS-5 GPNS-4 PBI asboblari ishlatiladi

Uzib olish usuli:

Disk elimlanadigan joydagi beton yuzasidan chuqurligi 0.5-1 mm qatlam olib tashlanadi va yuza changdan tozalanadi, disk betonga shunday elimlanadiki, elim diskning chekkasidan betonga chiqmasligi kerak. Asbob diskka ulanadi. Elimlashdan to sinov boshlangungacha vaqt 60-90 minut bo'lishi kerak, kuch 1 ± 0.3 kNG's tezlikda ravon oshib boriladi, asbob kuch o'lchagichi ko'rsatkichi belgilanadi. Uzib olish yuzasining maydon tasviri $\pm 0.5 \text{ sm}^2$ xatolik bilan disk yuzasida o'lchanadi. Uzib olishda betonda shartli kuchlanish qiymati aniqlanadi. Agar sug'irib olish yuzasining maydoni tasviri disk maydoning 80% dan kam bo'lsa yoki betonni uzib olishda armatura ochilib qolsa sinov natijalari hisobga olinmaydi. Bu usulda GPNV-5, URS-2, PGNS-5 asboblari ishlatiladi.

Elastik deformasiya usuli quyidagicha bajariladi.

Asbob shunday o'rnatiladiki, kuchlanish asbobdan foydalanish yo'riqnomasiga binoan sinalayotgan yuzaga nisbatan perpendikulyar holda qo'yilishi kerak, gumbazsimon indiktorida sinov o'tkazishda, izlar diametrini o'lchashni engillashtirish uchun, oq qog'oz va nusxa ko'chiruvchi qog'oz orqali o'tkazishga ruhsat etiladi. Bilvosita xususiyatlar qiymati asbobdan foydalanish yo'riqnomasiga binoan belgilanadi. Bilvosita xususiyatlarning o'rtacha qiymati qurilma qismida hisoblanadi. Bu usulda VSM, PM-2, PB asboblari ishlatiladi.

Zarba impulsi usuli quyidagicha bajariladi.

Asbob shunday o'rnatiladiki, asbobdan foydalanish yo'riqnomasiga binoan kuchlanish sinalayotgan yuzaga nisbatan perpendikulyar qo'yilishi kerak, qurilmani to'g'ri chiziqqa nisbatan sinashda asbobning holati izchillik bog'liqligini belgilash uchun namunalar sinalganidagi kabi qabul qilish lozim, boshqa hollarda asbobdan foydalanish yo'riqnomasiga binoan ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritiladi. Bilvosita hususiyatlar qiymati asbobdan foydalanish yo'riqnomasiga binoan belgilanadi. Bilvosita hususiyatlarning o'rtacha qiymati qurilma qismida hisoblanadi. Bu usulda S-22, A-1 VSM asboblari ishlatiladi.

2.4. Tekshirish natijalari bo'yicha xulosalar.

1. Lentasimon yaxlit quyma temir-beton poydevorni holati tekshirish natijasida yaxshi deb baholandi.
2. Tekshirish natijalarida g'ishtli devorlar qoniqarli deb baholanib, mayda yoriqlarni berkitish, suvoq qilish, tashqi va ichki devorlarni sifatli bo'yoq bilan bo'yash zarur.
3. Orayopma panellari holati qoniqarli, mayday darzlarni yamash va bo'yash zarur deb baholandi. Bino qaytatdan loyixalanganligi sababli orayopma plitasini yuk ko'tarish qobiliyati hisoblab chiqish zarur.
4. Zina pog'onalari va maydonchalarga sopol plitka yotqizish, ushlagichlarni to'la olib tashlab zamonaviy ushlagichlarga almashtirish zarur.
5. Ravoq (peremichka)ning holati yaxshi deb baholandi.
6. Tekshirish natijalarida deraza va eshiklarni holati qoniqarsiz deb baholandi. Ularni zamonaviy plastik deraza va eshiklarga almashtirish talab etiladi.
7. Taxtali pollarni barchasini almashtirish, taxta po'llar o'rniga linolium, sopol plitali pollarni zamonaviy turlari bilan qoplash talab etiladi.
8. Tomga to'shalgan tom qoplamasi asbes shiferni olib tashlab, unig o'rniga rangli profnastil qoplamasi yotqiziladi.

2.6. G'isht konstruktsiyasini kuchaytirish.

Tosh-gisht konstruktsiyalardan kurilgan bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilishda yuk kutaruvchi elementlarning xakikiy mustaxkamligini baxolash muximdir. Bu baxolash armaturalangan va armaturalanmagan konstruktsiyalar uchun buzuvchi yuklar usuli bilan zaminda gishtning, korishmaning xakikiy mustaxkamligi, pulatning okish chegarasini xisobga olib bajariladi. Bunda konstruktsiyaning yuk kutarish kobiliyatini pasaytirishi mumkin bulgan barcha omillarni: darzlar, katta shikastlanishlar, termaning tik xolatidan og'ishi, yuk kutaruvchi konstruktsiyalar orasidagi boglanishni buzulishi va shu kabilarni xisobga olish darkor. Gishtli bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilishda xamda devorning avariya xolatida, gisht konstruktsiyalarini to'la almashtirish tavsiya etiladi. Bino kayta rejalanganda undagi

devor konstruktsiyalarida yangi eshik, deraza darchalarini ochish va mavjud eshik, deraza konstruktsiyalarini kengaytirishga extiyoj tugilib koladi. Bu ishlar amalga oshirilishi natijasida devor konstruktsiyaning yuk kutarish kobilyati pasayadi. Bunday xollarda devor konstruktsiyasida yangi ochilgan darcha kismilarida kuchaytirish tadbirlarini amalga oshirish talab etiladi.

Bizning qayta loyixalayotgan binoimiz rejasida shunday eshik va deraza darchalarini ochishga extiyoj tug'ilmoqda. Shu boisdan mana shu ish bajariladigan qismlarda kuchaytirish tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Yangi ochilgan eshik va rom darchalarida kuchaytirish ishlarini olib borish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Profil nomeri [16 bo'lgan shvellerni peremichka sifatida urnatish uchun devorda

pol satxidan eshik balandligi o'lchanib ariqcha shaklida chuqurcha ochiladi;

2. Devorning bir tamonidan ariqchaga markasi 100 bulgan sementli qorishma bilan

[16 bo'lgan shveller o'rnatiladi. Xuddi shunday tarzda devorning qarama-qarshi

tamonidan xam [16 bo'lgan ikkinchi shveller o'rnatiladi;

3. Sverlo yordamida xar 400mm kadamda ikkala [16 shveller devori parmalanib teshiklar ochiladi;

4. Ochilgan teshiklar orkali xar ikkala shveller bir-biri bilan diametri 18mm ga teng bo'lga boltlar yordamida briktiriladi;

5. Diametri 18 mm bulgan ikki chetki boltlarni urnatishda darcha oraligining eng chekkasidan 300 mm masofadan oshib ketmasligiga e'tibor karatish kerak;

6. Devordan darcha ochish ishlari texnika xavfsizligiga rioya kilgan xolda, zarba berish orkali emas, balki "Vosch" perforatori yordamida parmalash orqali amalga oshiriladi;

7. Shvellerlar uzaro tag kismidan xar 400 mm kadamda 480x100x6mm pulat tasma bulagi orqali payvandlash ($N_{shvaq6mm}$) yuli bilan boglanishi

mustaxkamlanadi;

8. Darcha perimetri buylab devorning 500-600mm kenglikda suvoq qatlami ko'chirilib, tozalanadi;
9. Darcha perimetri bo'ylab (yukori tamonidan tashkari) devorning xar ikki qirrasiga 63x63x5li burchakliklar urnatiladi;
10. Darchadagi barcha pulat konstruksiyalar tutashgan qismlarini payvandlash ($N_{shv} > 5mm$) orqali uzaro biriktiriladi;
11. Darchaning bir tamonidagi ikkala qirraga joylashtirilgan burchakliklarni uzaro, xar 400mm qadamda 480x100x6mm pulat tasma bulagi orkali payvandlash ($N_{shva} \geq 6mm$) yuli bilan boglanadi;
12. Darchaning ikki yon tamonidan kamida 400mm masofada sverlo yordami bilan Parmalash orqali poldan peremichka balandligigacha xar 400mm qadamda diametri 14 mmli teshiklar ochiladi va bu teshiklar orqali Ø12-AIII armaturalar o'tkaziladi;
13. 12 banddagi armaturalarga xar ikki tarafdin tik ravishda darcha balandligiga teng keladigan Ø12-AIII armaturalar payvandlanadi;
14. 13 banddagi tik ravishda o'rnatilgan Ø12-AIII armaturalar darcha yon tamon kirralaridagi burchakliklar bilan uzaro Ø12-AIII armaturali xomutlar orqali bog'lanadi;
15. Darchaning xar bir yon tamonidan sim tur tortilib sement-qumli korishma bilan devorda ikki tarafdin suvoqlash ishlari bajariladi;
16. Kurilish chiqindilari oyok ostidan tozalab olinadi.

Xuddi shunday ketma-ketlikdagi tadbirlar yangi ochilgan eshiklar darchalarida xam amalga oshirilishi shart.

Mana shu ishlar bajarilgan taqdirda biz binoning mustaxkamligini, ustivorligini, zilzilaga bardoshliligini va yuk kutaruvchi devorning yuk kutarish kobiliyatini saklab qolgan bo'lamiz.

Deraza proyomi ustki peremichka(bolador) konstruktsiyasini xisoblash.

Binoning gisht devoridagi, $\ell_{ce} = 1,8m$ petlikdagi deraza proyomi yopmasi uchun yig`ma uchun yigma temir-beton boladorlarini xisoblab konstruktsiyalansin. Devorning qalinligi 38 sm. Devor o`qidan devorgacha masofa $V=5,8$ m. Binodagi yopma qalinligi 22 mm ko`p qavatli panellar.

Beton klassi $V=20$. Ishchi armaturali A – III klassli po`latdan. Montaj va ko`ndalang armaturalar klassi A-I. Rasm-1 da peremichkalarining umumiy ko`rinishi va qirqimi ko`rsatilgan.

YECHISH:

Xisobiy qarshiliklarni anikqlash: 2,3 jadval [A-I] dan $V = 20$ klassli betonning xisobiy qarshiliklarini aniqlaymiz.

$$R_b = 11,5MPa = 1,15kH / m^2$$

$$R_{bt} = 0,9MPa = 0,09kH / cm^2$$

R_b va R_{bt} larni ish sharoiti koeffitsienti $\gamma_{Ti=0,85}$ xisobga olib aniqlaymiz.

$$R_b = 11,5 \cdot 0,85 = 9,775MPa = 0,9775kH / cm^2$$

$$R_{bt} = 0,9 \cdot 0,85 = 0,765MPa = 0,0765kH / cm^2$$

2,8 jadval [A-I] buyicha A-III klassli armaturaning xisobiy qarshiliklari.

$$R_s = 365MPa = 36,5kH / cm^2$$

$$R_{sw} = 290MPa = 29kH / cm^2$$

Ko'ndalang sterjenlar uchun armaturalar A-I klassli olinadi.

$$R_{sw} = 175 \text{ MПа} = 17,5 \text{ кН} / \text{см}^2$$


2. Xisobiy sxema.


Peremichka brus shaklida bo'lib bir xil enlikdagi uchta ayrim elementdan iborat. Peremichkalarining ichki elementiga yopma paneli (devor)dan tushadigan nagruzkani ko'taradi.

Elementlarning devorga kirib turishni quyidagicha olamiz.

Ichki element uchun $a_g = 0,35\mathcal{M}$

Qolgan elementlar uchun $a_c = 0,25m$





1-rasm. Peremichka brusining kirkimdagi umumiy ko'rinishi.

a-peremichka bo'yicha qirqim; b-hisob sxemasi; v-armaturalash; 1-peremichka ichki brusi; 2-peremichka o'rta brusi; 3- peremichka tashqi brusi; 4-ko'pg'ovakli nastil; 5-ichki yuk ko'taruvchi devor konstruksiyasi ko'rinishi.

Peremichkaning har bir elementi bir oraliqli, erkin yotuvchi tekis yuklangan balkaday ishlaydi. Rasm.1.

